170 КИЛОМЕТР ОЛИСДА...

2-саҳифада

МАЪНАВИЯТМИ, ТЎХТАБ ТУРСИН!

3-саҳифада

ТИМАТИНИНГ КОНЦЕРТИГА ТУШГАНМИДИНГИЗ?

4-саҳифада

1925-YILDAN CHIQA BOSHLAGAN

Biz — kelajak bunyodkorimiz!

O'ZBEKISTON YOSHLAR ITTIFOQI

YOSHLAR OVOZI

№14 (16319)

2019-YIL 20-FEVRAL, CHORSHANBA

O'zbekiston yoshlar ittifoqining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, adabiy-badiiy gazetasi

www.yoshlarovozi.uz yoshlarovozi@umail.uz @Yoshlarovozi

Сайтимизга ўтиш учун QR-кодини телефонингиз орқали сканер қилинг.

СИРДАРЁ ИҚТИСОДИЙ РИВОЖЛАНИШ, МАЪНАВИЙ ЮКСАЛИШ МАНЗИЛИ СИФАТИДА НАМУНА БЎЛАДИ

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев жойларда амалга оширилаётган ислоҳотлар жараёни, бунёдкорлик ишлари, йирик лойиҳалар билан танишиш, халқ билан мулоқот қилиш мақсадида 19 февраль куни Сирдарё вилоятига ташриф буюрди.

Давлатимиз раҳбарининг 2018 йил 13 апрелда Сирдарёга ташрифи давомида берилган топшириқлар ва Сайхунобод туманида ўтган йиғилиш якунига асосан вилоятни 2018-2019 йилларда ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш дастури доирасида хизмат кўрсатиш ва сервис, қишлоқ хўжалиги тармоқларида қиймати 6,3 триллион сўмлик 302 та лойиҳа амалга оширилиб, 15 минг 458 янги иш ўрни ташкил этиш белгиланган эди.

Президентимиз вилоятга бу галги ташрифини Сирдарё туманидаги "Сирдарё универсал ойна" масъулияти чекланган жамияти фаолияти билан танишишдан бошлади. "Сирдарё" эркин иқтисодий зонаси ҳудудида ташкил этилган мазкур корхонада фармацевтика ва озиқ-овқат саноати учун шиша идишлар ишлаб чиқарилади. Ўтган йил июнь ойида фаолият бошлаган корхонада қиймати 50,1 миллион долларлик лойиҳа амалга оширилиб, импорт ўрнини босувчи маҳсулотлар ишлаб чиқариш йўлга қўйилди.

Мамлакатимиз фармацевтика саноатига шу пайтгача ҳар йили 4 миллион долларлик шиша флаконлар импорт қилинар эди. Ушбу корхона ишга тушгач, юртимиз фармацевтика корхоналарига шиша идишлар етказиб бериш имконияти кенгайди.

Марказий Осиёда ягона ушбу корхонада айни пайтда 100 дан ортиқ турдаги шиша идишлар тайёрланмоқда. Корхонага Германия, Чехия ва Франсияда ишлаб чиқарилган энг замонавий технологиялар ўрнатилган, ишлаб чиқаришда тўлиқ маҳаллий хом ашёдан фойдаланилади.

Жорий йилдан тўла қувват билан ишлайдиган корхонада йилига 102 миллион дона шиша идиш ишлаб чиқарилади, 2 миллион долларлик маҳсулотни экспорт қилиш кутилмоқда. Корхонада 450 киши иш билан таъминланган.

Президентимиз шиша идишлар ишлаб чиқариш жараёни, тайёрланаётган маҳсулотлар намуналарини кўздан кечирди.

Шу ерда "Сирдарё универсал ойна" корхонаси томонидан кластер усулида амалга оширилаётган лойиҳалар ҳақида маълумот берилди.

(Давоми 2-саҳифада)

YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATI — AMALDA

МУАММОЛАРГА ЕЧИМ ТОПИЛДИ(МИ)?

Андижонда Ўзбекистон ёшлар иттифоқи Марказий Кенгаши, вилоят ҳокимлиги, қатор давлат ва жамоат ташкилотлари ҳамкорлигида "Ёшлар ҳафталиги" бўлиб ўтди.

Ҳудудда ёшларга оид давлат сиёсатининг амалга оширилишини ўрганиш ва аниқланган муаммоларни ҳал этишга қаратилган ҳафталик давомида ўтказилган давра суҳбатлари, спорт мусобақалари ва бошқа лойиҳаларда 100 минг нафардан зиёд ёш камраб олинди.

Ҳафталик доирасида ёшлар бандлигини таъминлаш, хорижда ишлаб қайтган йигит-қизларни ишга жойлаштириш мақсадида туман-шаҳарларда бўш иш ўринлари ярмаркалари ташкил этилди. Ярмаркаларда 1 минг 140 нафар йигит-қиз қатнашиб, қандолатчилик, тикувчилик цехларига ва маиший хизмат соҳалари бўйича ишга жойлашди. Ҳудудларда "Ёшлар тадбиркорлик кластерлари" ўтказилиб, уларда 700 нафарга яқин ёш кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик соҳаси бўйича малакасини оширди. Айниқса, ўқувчилар давоматини яхшилаш, уларни дарсларга қизиқтириш мақсадида ўтказилган "Дўстингни сафга қайтар!" лойиҳаси кўпчиликда катта қизиқиш уйғотди.

Шунингдек, "Фидокор ёшлар" отряддлари иштирокида тунги рейдлар ўтказилиб, 96 нафар ёш билан индивидуал суҳбат уюштирилди.

Ҳафталик давомида ёшларнинг жисмоний фаоллигини ошириш ва оммавий спорт тадбирларини ташкил этиш мақсадида ўтказилган спорт мусобақаларида йигирма минг нафардан зиёд йигит-қиз иштирок этди.

Абдужалил АБДУРАҲИМОВ, Авазбек АРАББОЕВ

BILIB QO'YGAN YAXSHI

БАДАЛ БИЛАН ИШ БЎЛАР ҲАЛ

ёхуд ўзини ўзи иш билан банд қилган ёшларга ҳам энди пенсия тайинланиши ростми?

Халқимизда корхона, ташкилот ёки идораларда ишлаган шахсгина пенсия олади, деган тушунча мавжуд. Аслида ундай эмас. Эндиликда давлатимиз хорижда меҳнат қилаётган ёки якка тартибдаги тадбиркорлик, деҳқончилик, парранда ва қорамол етиштириш билан шуғулланаётган фуқароларга пенсия таъминоти учун етарли иш стажини тўплаш имконини яратиб бермоқда. Мазкур тоифага кўпроқ ёшлар киришини инобатга олиб, мавзуни батафсил ёритиш мақсадида экспертга мурожаат қилдик.

Пенсия олиш ҳуқуқи бўйича миллий қонунчиликка киритилган ўзгартиришларни **Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги ҳузуридаги Бюджетдан ташқари пенсия жамғармаси мутахассиси Ўткирбек ЖУМАНОВ** шарҳлаб берди:

— Вазирлар Маҳкамасининг 2016 йил 22 февралдаги қарорига мувофиқ, ўзини ўзи иш билан таъминлаётган, жумладан,

шахсий томорқасида балиқ, парранда боқиб кўпайтириш, шунингдек, қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини етиштириш ва сотиш билан банд бўлган барча жисмоний шахслар Молия вазирлиги ҳузуридаги Бюджетдан ташқари пенсия жамғармасига ўрнатилган тартибда суғурта бадалларини тўлаб бориш орқали келгусида пенсия олиш ҳуқуқини қўлга киритиши мумкин.

Келинг, янада батафсил қилиб тушунтирсам.

АГАР ФУҚАРО ДЕҲҚОН ХЎЖАЛИГИ ВА КАМИДА 4 СОТИХЛИ ШАХСИЙ ТОМОРҚА ЕРИДА ЭКИН-ТИКИН ҚИЛСА ЁКИ ШУ ЕР МАЙДОНИДА ҚОРАМОЛ ЁХУД 50 БОШДАН КАМ БЎЛМАГАН ПАРРАНДА ПАРВАРИШЛАЁТГАН БЎЛСА ҲАМДА ПЕНСИЯ ЖАМҒАРМАСИГА ЙИЛИГА ЭНГ КАМ ИШ ҲАҚИНИНГ БИР БАРАВАРИ МИҚДОРИДА СУҒУРТА БАДАЛИНИ ТЎЛАСА, ЎША ЙИЛ УНИНГ МЕҲНАТ СТАЖИГА КИРИТИЛАДИ.

Мазкур тартиб 2018 йил 1 июлдан бошлаб амал қилмоқда.

Ушбу имкониятдан хорижда ишлаётган Ўзбекистон Республикаси фуқаролари ҳам фойдаланиши мумкин. Фақат улар меҳнат стажига эга бўлиш учун йилига энг кам иш ҳақининг 4,5 баравари миқдорида суғурта бадалини тўлайди. Бироқ таъкидлаш керак, бу жараён мутлақо ихтиёрий. Яъни,

ПЕНСИЯ ТАЪМИНОТИ УЧУН БАДАЛ ТЎЛАШГА ФУҚАРОНИ ҲЕЧ КИМ МАЖБУР ҚИЛОЛМАЙДИ.

Томорқа хўжалиги орқали ўзини ўзи иш билан таъминлаётган ёки чет элда ёлланиб ишлаётган фуқаро дастлаб маҳалласидан ҳақиқатан ҳам шундай фаолият билан шуғулланаётгани тўғрисида маълумотнома олиб, доимий яшаш жойи бўйича давлат солиқ хизмати органига тақдим этиши лозим. У ерда фуқарога махсус солиқ коди очилади ҳамда бадал тўлови қабул қилинади.

Давлат солиқ хизмати органи эса, ушбу маблағни Пенсия жамғармасининг ягона ғазна ҳисоб-рақамига ўтказиб беради. Шундан кейин фуқарога автоматик равишда иш стажи ёзилади.

Н.БАҲОДИРОВА тайёрлади.

ESHITDINGIZMI?

БУ ҲАЛИ БОШЛАНИШИ

Пойтахтимиздаги Халқаро ҳамкорлик марказида "Big Idea Challenge" кўрик-танловининг навбатдаги босқичи бўлиб ўтди. Лойиҳа мамлакатимиздаги Ўзбекистон Инновацион ривожланиш, Олий ва ўрта махсус таълим вазирликлари, Британия Кенгаши ҳамда Лондон метрополитен университети билан ҳамкорликда амалга оширилмоқда.

"Big Idea Challenge" танлови аслида халқаро мақомга эга бўлиб, унинг бош ташаббускори Лондон метрополитен университети ҳисобланади. Лойиҳа ёшларнинг инновацион ташаббускорлигини оширишга хизмат қилиши билан аҳамиятлидир. Айтайлик, шу кунгача европалик талабалар таклиф этган стартап лойиҳалардан 21 миллион фунт стерлинг миқдорида даромад кўрилиб, 170 дан ортиқ янги иш ўринлари яратилди.

Мамлакатимиз ёшлари томонидан эса, танловга 230 га яқин лойиҳа тақдим этилган. Шундан 23 та лойиҳа иккинчи босқич учун саралаб олинди. Уларнинг муаллифлари интенсив тренингга ҳам жалб қилиниб, Лондон метрополитен университети экспертлари билан бевосита мулоқот қилиш, билим ва кўникмаларини мустаҳкамлаш имконига эга бўлди.

— Ушбу танлов ёшларимизни стереотипларни ёриб чиқиб, янгидан-янги ғояларни ҳаётга татбиқ этишга ундайди, — дейди Инновацион ривожланиш вазирлиги бошқарма бошлиғи Бахтинур Ҳуданов. — Ҳеч бир давлат якка ўзигина ривожлана олмаслигини яхши биламиз. Шу маънода Ўзбекистон халқаро ҳамкорлик алоқаларини кенгайтириш орқали келажак сари илдам қадам ташлаб бормоқда. Танлов жараёнида инглиз тилида эркин сўзлашаётган ука-сингилларимизни кўриб жуда қувондим. Сабаби бундай салоҳияти билан улар халқаро миқёсдаги кўрик-танлов ва анжуманларда бемалол қатнашиб, мамлакатимиз нуфузини ошира олади.

— Танловда болалар учун мўлжалланган "Виртуал экскурсия" дастури билан иштирок этяпман, — дейди Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти талабаси Мехрангиз Ҳусинова. — У кичик ёшдаги болалар учун мўлжалланган бўлиб, турли анимациялар, фото, видео ва аудио форматдаги материаллар билан тўлдирилган. Дастур ёрдамида Бухоро, Самарқанд, Хоразм каби қадимий шаҳарларимиз бўйлаб виртуал саёҳат қилиш мумкин. Асосий урғу ёш авлод вакилларини аждодлар мероси билан таништириш, улар билан фахрланиш ҳиссини уйғотишга қаратилган. Келгусида лойиҳани мактабгача таълим муассасаларида кенг тарғиб этмоқчимиз.

— Ўзбек ёшларидаги шижоат ва интилишни кўриб, хайратга тушдим, — дейди Лондон метрополитен университети эксперти Наташа Триай. — Уларнинг лойиҳалари анча долзарб. Шу боис киши эътиборини тортади. Талабалар инновацион ғояларини такомиллаштириш мақсадида замонавий технологиялардан фойдалангани ҳам таҳсинга лойиқ. Бу, албатта, ишнинг унуми ва сифатига ижобий таъсир кўрсатади.

Маъмура ХЎЖАҚУЛОВА

SPORT

БИРИНЧИСИДА БИРИНЧИ ЎРИН

Пойтахтимизда Марказий Осиё қиличбозлик Конфедерациясининг I очиқ чемпионати бўлиб ўтди. Унда Конфедерацияга аъзо мамлакатлардан 150 нафардан зиёд ўсмир ва кадет совринли ўринлар учун кураш олиб борди.

Якунда 36 та медални қўлга киритган Ўзбекистон терма жамоаси умумжамоа ҳисобида биринчи ўринни эгаллади. Спортчиларимиз мусобақа давомида 11 та олтин, 9 та кумуш ва 16 та бронза медалга сазовор бўлди.

— Қиличбозликнинг шпага йўналиши билан тўққиз йилдан бери шуғулланаман. Бу муддат мобайнида олти марта мамлакат чемпиони бўлдим, — дейди олтин медаль соҳиби Санжарбек Собиров. — Бу натижалар билан тўхтаб қолмайман. Мақсадим — 2020 йилда Токиода бўлиб ўтадиган Ёзги олимпиада ўйинларида муносиб қатнашиб, олтин медални қўлга киритиш.

Шерзод МАҲМУДОВ

IMKONIYAT

"CAREER BRIDGE"

хориждаги тенгдошларимиз бандлигини таъминлайди

Ёшлар иттифоқи Марказий Кенгашида "Career Bridge" онлайн видеоконференцияси ташкил этилди.

Ўзбекистон ёшлари умумжаҳон ассоциацияси ташаббуси билан ўтказилган тадбирда қирқдан ортиқ давлат ва жамоат ташкилотлари вакиллари ҳамда нуфузли хусусий секторларнинг масъул ходимлари иштирок этди.

Хорижда таълим олаётган ўзбек ёшларига юртимиздаги давлат ва хусусий корхоналарда мавжуд бўлган бўш иш ўринлари ҳақида маълумот бериш, ёш мутахассисларнинг қизиқишлари, ташкилотларнинг имконият ва талабларини аниқлаш, шунингдек, келгусида ўқишни тамомлаган тенгдошларимизни ўз йўналишлари бўйича иш билан таъминлашга қаратилган анжуманда хусусий сектор вакиллари томонидан 250 та бўш иш ўрни таклиф этилди.

Р.НАЗАРМАТОВ

— Айни пайтда хорижда ўқиётган, фаолият юритаётган ўзбек ёшларининг маълумотлари базасини яратяпмиз, — дейди Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги мутахассисларни хорижда тайёрлаш ва ватандошлар билан мулоқот қилиш бўйича "Эл-юрт умиди" жамғармаси бош мутахассиси Азамат Неъматуллаев. — База орқали мутахассис излаётган вазирлик, идора ва ташкилотларнинг раҳбарлари захира кадрлар ҳақида батафсил маълумот олиш имконига эга бўлади.

Ўйлайманки, келгусида "Career Bridge" лойиҳаси иш берувчи ва ишга кирувчи ўртасида мулоқот кўприги бўлиб хизмат қилади.

Шаҳноза НУРУЛЛАЕВА

СИРДАРЁ ИҚТИСОДИЙ РИВОЖЛАНИШ, МАЪНАВИЙ ЮКСАЛИШ МАНЗИЛИ СИФАТИДА НАМУНА БЎЛАДИ

(Бошланиши 1-саҳифада)

Корхона ёнида “Сирдарё гласс” МЧЖ томонидан янги технология асосида бир вақтнинг ўзида фармацевтика ва озиқ-овқат саноати учун уч хил рангли шиша идишлар тайёрлаш лойиҳаси амалга оширилмоқда. Келаси йил ишга тушириладиган корхонада 500 иш ўрни яратилади, йилига 3,7 миллион долларлик маҳсулот экспортга йўналтирилади.

“Сирдарё шиша” МЧЖ томонидан шиша идишлар учун кварц қумини қайта ишлаш йўлга қўйилмоқда. Йилига 438 минг тонна қум қайта ишланадиган корхона учун “Асака банк”дан 5 миллион долларлик кредит ажратилади, 5,1 миллион доллар корхонанинг ўз маблағидир.

“Сирдарё универсал ойна” ва “Сирдарё гласс” корхоналарида ишлатиб бўлинган иссиқлик энергиясидан фойдаланиб, Европа типидаги иссиқхонада сабзавот етиштириш режалаштирилмоқда. Унга кўра, “Сирдарё универсал ойна” корхонаси ёнида 10 гектарлик иссиқхона барпо этилади. Лойиҳа беш босқичдан иборат бўлиб, иссиқхоналарни бошқаришнинг тўлиқ автоматлаштирилган тизими, сувни қайта циркуляция қилиш ва ёмғир сувидан фойдаланиш, сифат назорати, ишлаб чиқариш, ресурслар билан таъминлашнинг европача тизимини қамраб олади.

Ушбу иссиқхонада йилига 2,5 минг тонна маҳсулот етиштириш, 6 миллион доллар атрофида соф даромад олиш ҳамда 5 миллион долларлик маҳсулотни экспорт қилиш кўзда тутилмоқда.

“Сирдарё фиш техноложи” МЧЖ томонидан ёпиқ сув айланма тизими орқали балиқ етиштириш ва қайта ишлаш режалаштирилган. 2020 йилда ишга тушириладиган ушбу лойиҳа самарасида йилига 2 минг 750 тоннадан зиёд балиқ етиштирилади.

“Сирдарё гласс” корхонаси томонидан қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини қайта ишлаш, сақлаш ҳамда консервалаш йўлга қўйилади. Ушбу лойиҳа орқали йилига 3 минг тонна маҳсулот қайта ишланади, 140 иш ўрни яратилади. Бу вилоятда етиштирилаётган мева-сабзавотларни қайта ишлаш, сақлаш ва экспорт қилиш ҳажмини ошириш имконини беради.

Шу ернинг ўзида вилоятда инвестиция маблағлари асосида фармацевтика, тўқимачилик, электротехника маҳсулотлари ва қурилиш материаллари ишлаб чиқариш, Фарҳод ГЭСини модернизация қилиш, Сардоба сув омбори қошида кичик ГЭС қуриш лойиҳалари, “Сирдарё голден фрутс” МЧЖ томонидан туманда ташкил этилган кўп тармоқли логистика маркази тақдимотлари ўтказилди.

Мамлакатимизнинг Хитой, Италия ва Қозоғистон давлатларидаги элчилари вилоятга тўғридан-тўғри инвестициялар жалб этиш, ҳудудлараро ҳамкорликни кенгайтириш ва экспорт ҳажмини юксалтириш бўйича амалга оширилаётган истиқболли лойиҳалар ҳақида маълумот берди.

Давлатимиз раҳбари вилоят иқтисодий салоҳияти ва аҳоли фаровонлигини юксалтиришда ушбу инвестицион лойиҳаларнинг аҳамияти юқори эканини таъкидлаб, уларни амалга ошириш муддатларини қисқартириш ва иқтисодий самарадорлигини ошириш юзасидан мутасаддиларга топшириқлар берди.

Президентимиз Сирдарё вилояти Ховос туманига ташриф буюриб, дастлаб Ховос шаҳарчасининг бош режаси билан танишди.

“Мирзачўл тажрибаси” асосида Ховос шаҳарчасининг янги маркази бунёд этилиши режалаштирилган. М-39 автомобиль йўли бўйидаги 42 гектар ҳудудда комплекс қурилиш ишлари лойиҳалаштирилган. Унга мувофиқ, бу ерда маҳаллий ҳокимият ва бошқарув органлари бинолари, Давлат хизматлари агентлиги, тижорат банклари, турар жойлар, мактаблар, истироҳат боғи, хотира майдони, кинотеатр, кутубхона, масжид, бозор, савдо ва маиший хизмат шохобчалари қурилади. Йўл инфратузилмаси ривожлантирилиб, аҳоли ва транспорт учун янада қулайликлар яратилади.

Ховосда охирги эллик йил давомида биронта кўп қаватли уй қурилмаган. Одамлар эски, тор, зах уйларда яшаб келган. Энди ҳар йили кўп қаватли янги уйлар барпо этилиб, аҳолининг ижтимоий шароитлари босқичма-босқич яхшиланиб боради. Оилавий шароити яхшиланган инсоннинг умиди, эртанги кунга ишончи ҳам мустаҳкамланади.

Шу мақсадга хизмат қиладиган яна бир хайрли ташаббус: “Ўзпахтасаноат” акциядорлик жамияти томонидан Сирдарё вилоятида 32 та тикувчилик мажмуаси ташкил этиш режалаштирилган. Бу цехларда жами 4 минг 200 дан ортиқ иш ўрни яратилади.

Президентимиз шу ерда ховослик нуронийлар, маҳалла фаоллари ва ёшлар билан суҳбатлашди.

Мамлакатимизда катта ўзгаришлар амалга оширилаётгани, давлат билан бирга одамлар ҳам уйғониши, фаровон яшашга интилиши кераклиги таъкидланди. Ховосликлар вилоят ривожи, аҳоли турмуш даражасини оширишга қаратилган янги режалар уларнинг ҳаётга муносабатини ўзгартираётганидан мамнунлигини қайд этдилар.

Шунингдек, давлатимиз раҳбари тумандаги “GRAN RUTA DE LA SEDA” корхонаси томонидан замонавий усулда ташкил этилган гидропоника иссиқхона мажмуасини кўздан кечирди.

Бугунги кунда мамлакатимизнинг барча ҳудудларида гидропоника усулида иссиқхоналар қурилмоқда. Бу эса сифатли полиз маҳсулотлари етиштириш, кўплаб иш ўринлари яратиш имконини бераётир. Мутахассисларнинг фикрича, оддий усулда етиштирилаётган помидор кўчатларидан 3 килограмм ҳосил олинса, гидропоника усулида ҳосилдорлик 12 килограммгача етади. Экинларнинг пишиб етилиши 25-30 кунга қисқаради.

Мазкур иссиқхоналарда Голландиядан серҳосил помидор ва бодринг навлари келтирилиб экилган. Бутун жараён тўлиқ автоматлаштирилган. Корея Республикасидан олиб келинган замонавий жиҳозлар ҳароратни, ўсимликнинг сув ва озуқага талабини чуқур таҳлил орқали аниқлайди ва минераллар билан бойитилган сув томчилатиш усулида ўсимлик илдизига етказилади.

Иссиқхонада йилига 1 минг 500 тонна помидор етиштирилади. Шунингдек, 2 миллион долларлик қишлоқ хўжалиги маҳсулоти экспорт қилинади. Корхона томонидан жорий йилнинг учинчи чорагида яна 10 гектар иссиқхонани ишга тушириш режалаштирилган.

Президентимиз мазкур иссиқхонани кенгайтириш, Жанубий Кореядан келтирилиб, фойдаланилаётган замонавий технологияларни ўзимизда ишлаб чиқариш ва харажатни камайтириш юзасидан кўрсатмалар берди.

Шавкат Мирзиёев Янгиер шаҳрида ташкил этилиши режалаштирилган аммиак ва карбамид заводи қурилиши майдонида бўлди.

Мамлакатимизда қишлоқ хўжалигини диверсификация қилиш, маҳсулот етиштиришни кўпайтириш ва экспортга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Бу ер унумдорлигини ошириш, минерал ўғитлар ишлаб чиқаришни талаб этади.

Шу боис “Ўзкимёсаноат” акциядорлик жамияти томонидан “Samsung Engineering” компанияси билан ҳамкорликда аммиак ва карбамид заводи қуриш режалаштирилган. Умумий қиймати 600 миллион доллар бўлган мазкур заводда йилига 400 минг тонна аммиак, 660 минг тонна карбамид ишлаб чиқариш йўлга қўйилади. Хориждан замонавий технологиялар келтириб ўрнатилади, “ноу-хау”лар қўлланилади. 500 доимий иш ўрни яратилади. Завод қурилиши учун жуда қулай жой танланган. Бу ерда табиий газ манбаи, электр ва сув таъминоти тармоқлари, автомобиль ва темир йўллар бор.

Сирдарёдагидек қулай инфратузилма ҳеч қаерда йўқ. Бундай имконият заводни қуриш ва барқарор ишлатишда қўл келади, инвесторлар қизиқишини оширади. Бу жуда рентабелли, истиқболли лойиҳа, деди Шавкат Мирзиёев.

Давлатимиз раҳбарига корхонанинг иқтисодий самарадорлиги, қурилиш ишлари жадвали ҳақида маълумот берилди. Президентимиз завод маҳсулотлари ички талабни қондириш ва ташқи бозорга чиқишда муҳим ўрин тутишини таъкидлаб, мутасаддиларга тегишли топшириқлар берди.

Президентимиз Сирдарё вилоятига ташрифи доирасида Мирзаобод туманидаги “Бек кластер” масъулияти чекланган жамият шаклидаги қўшма корхона томонидан ташкил этилган пахтани қайта ишлаш заводи фаолияти билан танишди. Бу ерда меҳнат қилаётган ходимлар билан мулоқот қилди.

2018 йилда Туркиянинг “SUMER” компанияси билан ҳамкорликда фойдаланишга топширилган заводда йилига 60 минг тонна пахта қайта ишланади. Корхонада 200 иш ўрни яратилган.

Давлатимиз раҳбари ўтган йили Сирдарё вилоятига ташрифи доирасида “Бек кластер” корхонасида бўлиб, уни янада ривожлантириш бўйича топшириқлар берган эди.

Президент қарори асосида “Бек кластер”га 18 минг гектар ер майдони ажратиб берилган. Масъулияти чекланган жамиятга қарашли корхоналарда мингга яқин доимий иш ўрни яратилган. Бундан ташқари, 1 минг 800 нафар киши мавсумий ишларга жалб қилинади.

Янги завод пахта хом ашёсини чуқур қайта ишлайди. Аҳамиятли томони, бу ерга ўрнатилган замонавий ускуналар пахта толасини сифатли қайта ишлаш баробарида, энергиятежамкор ҳамдир.

Қишлоқ хўжалигига илмий ёндашиш доимий эътиборимизда бўлиши керак. Бусиз юқори ҳосилдорликка эришишнинг иложи йўқ. Шу жиҳатдан “Бек кластер” корхонаси томонидан илмий муассасалар билан ҳамкорликдаги ишларни қўллаб-қувватлаймиз, деди Шавкат Мирзиёев.

Президентимизга “Бек кластер”да истиқболда амалга оширилиши кўзда тутилган лойиҳалар ҳақида ҳам маълумот берилди. Хусусан, кластер қошида давлат хусусий шериклиги асосида коллеж очиш режалаштирилган. Бу ерда кластерга қарашли корхоналар учун малакали мутахассислар тайёрланади.

Сирдарё вилоятида қишлоқ хўжалиги соҳасида амалга ошириладиган лойиҳалар тақдимоти ўтказилди. Жумладан, паррандачилик, чорвачилик, балиқчилик, уруғчилик ва узумчиликни ривожлантириш, сув тежовчи технологияларни жорий қилиш, ер майдонларини қайта ўзлаштириш, “Ҳар бир оила — тадбиркор” дастури бўйича аҳолининг томорқадан самарали фойдаланишини ташкил этиш бўйича амалга ошириладиган лойиҳалар ҳақида маълумот берилди. Бу лойиҳаларнинг амалга оширилиши яна минглаб иш ўринлари яратиш имконини беради.

Шу ерда қорабайир отлари, қорамол, эчки, туяқуш, қуён ва бедана зотлари намойиш этилди.

Давлатимиз раҳбари бу жониворларнинг маҳсулдорлиги, тез кўпайиши, улар ҳар бир оила учун зарурлигига эътибор қаратди. Уй шароитида чорва ва парранда боқишни кўпайтириб, аҳолини озиқ-овқат маҳсулотлари, қўшимча даромад билан таъминлаш мумкинлигини таъкидлади.

Гулистон шаҳри кун сайин чирой очмоқда. Янги уйлар, иншоотлар, равон кўчалар, сайилгоҳлар, маҳаллаларда амалга оширилаётган ободлик ишлари ҳавасга арзигулик.

Бу манзара Гулистоннинг “Буюк келажак” мавзесида янада ёрқин намоён бўлади. Янги мавзеда 2018 йили намунали лойиҳа асосида 5 қаватли 8 та уй қурилиб, фойдаланишга топширилди, 360 оила уйли бўлди. “Буюк келажак”да яна 7 қаватли, 420 хонадондан иборат 10 та уй қурилмоқда. Бу каби уйлар нафақат Гулистонда, балки бутун вилоятда ҳам кейинги 25-30 йилда биринчи маротаба барпо этилаётир.

Президентимиз “Буюк келажак” мавзесида қурилган уйлар, янги қурилиш жараёни билан танишди.

Бу уйларни қуришдан мақсад аҳолининг кўп йиллик орзуларини амалга оширишдир. Шунинг учун уларни сифатли, ҳар томонлама қулай қилиб қуришимиз керак. Токи янги уйга кўчиб келган ҳар бир оила биздан рози бўлсин, деди Шавкат Мирзиёев.

Давлатимиз раҳбари бу борада “Сирдарё тажрибаси”ни жорий қилиш ҳақида кўрсатмалар берди. Кейинги босқичда амалга ошириладиган ишлар муҳокама қилинди.

“Guliston City” қурилиши лойиҳаси уч босқичда амалга оширилади. 2019-2022 йилларга мўлжалланган замонавий шаҳарчанинг умумий ер майдони 45 гектарга яқин бўлади. Бу ерда кўп қаватли уйлар, савдо мажмуалари, кўнгилочар масканлар, маданият ва бизнес маркази, анжуманлар саройи, таълим ва тиббиёт муассасалари, меҳмонхона, ҳунармандлик уйи каби иншоотлар қурилади.

Шаҳарда 2020 йилга қадар яна 10 та 7 қаватли уй, шунингдек, ички ишлар ходимлари, ҳарбийлар учун хизмат уйлари фойдаланишга топширилади. Бу ерда намунали боғчалар, мактаблар ва бошқа зарур инфратузилма объектлари барпо этилади.

Президентимиз вилоятда ёшлар таълим-тарбияси, маънавият ва маърифат, спорт соҳасида амалга ошириладиган лойиҳалар билан ҳам танишди.

Сирдарё вилоятида китобхонликни кенг тарғиб қилиш концепцияси ҳақида маълумот берилди. Унга кўра, фарзанд тарбияси ҳали у туғилмасидан олдин бошланиши, сўнгра чақалоқлик, мактабгача тарбия ва мактаб ёшидаги таълим даврига оид янги концепция ҳаётга кенг татбиқ этилмоқда. Гулистон шаҳрида “O‘qituvchi” бренди остида марказий китоб дўкони ташкил этиш ва китобхонлик маданиятини ривожлантириш концепцияси ҳам тақдим қилинди.

Маънавиятимиз, ғурур-ифтихоримиз биринчи ўринга чиқадиган вақт келди. Фарзандларимизни ана шундай етук авлод қилиб тарбиялаш учун барчамиз масъулмиз. Биз бунинг учун маблағ ва вақтни аямаймиз, бор имкониятимизни ишга соламиз, деди давлатимиз раҳбари.

Шунингдек, иқтисодий шароитни яхшилаш кўп эзгу ишлар дебочаси экани, рўзғори бут, оиласидан хотиржам киши, эртанги кундан умиди катта ёшлар маънавияти ҳам юксалиб бориши, шундагина китоб ўқишга ҳавас ортиши қайд этилди.

Вилоятда ичимлик суви таъминоти ва оқова сув тизимини ривожлантириш, ишсиз ёшлар ва ижтимоий ҳимояга муҳтож оилалар фарзандлари бандлигини таъминлаш, кўп қаватли уйлар, спорт иншоотлари қуриш, маънавий тарбия ва китобхонликни тарғиб этиш концепцияси асосида қўшма китоб павильонлари ташкил қилиш борасида амалга ошириладиган ишлар ҳақида ҳам маълумот берилди.

Гулистон шаҳрида Сирдарё вилояти ва туманлар ҳокимлари, фаоллар, вазирлик ва идоралар раҳбарлари иштирокида йиғилиш ўтказилди.

Президент Шавкат Мирзиёев Сирдарё вилоятининг саноат ва хизмат кўрсатиш салоҳиятидан тўлиқ фойдаланилмаётгани, қишлоқ туманларда саноат деярли йўқлигини қайд этди. Шу боис махсус ишчи гуруҳнинг ўрганишлари натижасида 342 та ўрта ва йирик инвестиция лойиҳаси дастури ишлаб чиқилгани таъкидланди.

Хусусан, Сирдарё иссиқлик электр станцияси ва Фарҳод гидроэлектр станциясини модернизация қилиш, Сардоба сув омборида кичик гидроэлектр станцияси қуриш бўйича жами 275 миллион долларлик учта лойиҳани амалга ошириш бошланади.

Бундан ташқари, Ўзбекистоннинг Хитой, Италия ва Қозоғистондаги элчилари томонидан 30 га яқин лойиҳа бўйича аниқ таклифлар шакллантирилган. Президентимиз вилоятга қўшимча инвестициялар олиб келиш, тадбиркорлик ташаббусларини юзага чиқаришга кўмаклашиш, қишлоқ хўжалиги ерлари ва томорқалардан самарали фойдаланиш бўйича топшириқлар берди.

Йиғилишда маънавият, маданият, таълим-тарбия масалаларига ҳам алоҳида эътибор қаратилди.

Давлатимиз раҳбари кейинги йилларда анъанага айланган хайрли ишларни давом эттирган ҳолда, Гулистон шаҳрида Ўзбекистон халқ шоири Ҳалима Худойбердиева номидаги ижод мактаби ташкил этиш таклифини илгари сурди. Йиғилганлар бу ташаббусни қизғин қўллаб-қувватлади.

Шу билан Президентимиз Шавкат Мирзиёевнинг Сирдарё вилоятига ташрифи якунланди.

ЎзА

SHU SONGA XABAR

170 КИЛОМЕТР ОЛИСДА...

Ёшлар иттифоқининг Конимех тумани кенгаши раиси марказдан 170 километр узоқликда, чўл зонасида жойлашган Янгиқазғон овулидаги 27-умумтаълим мактаби ўқувчилари ҳамда ҳудуддаги ишсиз ёшлар билан учрашди.

— Овулда бешта ўқув маскани мавжуд бўлиб, мажбурий умумий таълимга 580 нафар ўғил-қиз қамраб олинган, — дейди Иттифоқнинг туман кенгаши раиси Самандар Рисбеков. — Бу ёшлар ўзига яраша иқтидор ва қобилиятга эга. Уларнинг фан, спорт, санъатдаги интилишларини кўриб қувонасан, киши.

Шу куни овулдаги таълим муассасалари ўқувчилари ўртасида спорт мусобақаси ўтказилди. Муросасиз кечган волейбол баҳсларида 23-мактаб, футбол турнирида эса, 27-мактаб ўқувчилари биринчи ўринга сазовор бўлди.

Сафар давомида ёшлар етакчиси тўрт нафар ижтимоий ҳимояга муҳтож йигит-қизнинг ҳолидан хабар олиб, оиласи учун зарур озиқ-овқат маҳсулотларини етказди.

Роҳатой ҚОДИРОВА

XALQARO HAMKORLIK

МУШТАРАК МАҚСАДЛАР САРИ

Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонасида “Марказий Осиёда ўзаро муштараклик: таҳдидлар ва янги имкониятлар” мавзуида халқаро конференция бўлиб ўтмоқда.

Конференция Ўзбекистон Республикаси Ташқи ишлар вазирлиги ва Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг Марказий Осиё учун превентив дипломатия бўйича минтақавий маркази ҳамкорлигида ташкил этилди. Унда Марказий Осиё давлатларидан ташқари, АҚШ, Буюк Британия, Россия ва бошқа мамлакатларнинг таҳлилий марказлари вакиллари, шунингдек, Европа Иттифоқи, Жаҳон банки, Европа инвестицион банки ва бошқа халқаро молия институтлари экспертлари ҳам иштирок этмоқда.

Нуфузли анжуманда Марказий Осиёда минтақавий ҳамкорликнинг ҳозирги ҳолати ва хавфсизлик, савдо, транспорт, сувдан фойдаланиш, таълим ва илм-фан соҳаларида алоқаларни мустаҳкамлаш масалалари муҳокама қилинди.

— Бугунги кунда Марказий Осиёда икки ва кўп томонлама муносабатлар шиддат билан ривожланмоқда, — деди БМТнинг Марказий Осиёда превентив дипломатия бўйича минтақавий маркази раҳбари Наталья Герман. — Ўтган қисқа даврда минтақа давлатлари сиёсий иродаси билан ҳудудда хавфсизликни таъминлаш борасида қатор ташаббуслар ўртага ташланди. Биз эса, мазкур ташаббусларни қўллаб-қувватлаймиз.

Конференция бугун ниҳоясига етади.

Мадина НОРЧАЕВА

TASHABBUS

“ИТТИФОҚ КУБОГИ” ҚИЗҒИН КЕЧДИ

Термиз шаҳрида касб-ҳунар коллеж ҳамда академик лицей ўқувчилари ўртасида спортнинг сузиш тури бўйича “Иттифоқ кубоги” ўтказилди.

Ёшлар иттифоқининг маҳаллий кенгаши ташаббуси билан ёшларнинг бўш вақтини мазмунли ўтказиш, уларни соғлом турмуш тарзига жалб этиш мақсадида ташкил этилган мусобақада 100 нафардан зиёд йигит-қиз иштирок этди.

Якунда ғолиб ва совриндорлар аниқланиб, фахрий ёрлиқ ва қимматбаҳо совғалар билан тақдирланди.

Наргиза РАҲМАТУЛЛАЕВА

HUQUQIY TARG'IBOT

САВОЛЛАР КЎП

Жиззах вилоятининг олис ҳудудларида истиқомат қилаётган ўқувчи-ёшлар суд органлари фаолияти билан бевосита танишиш имконига эга бўлмоқда.

Яқинда Ёшлар иттифоқининг Жиззах шаҳар кенгаши ташаббуси билан 10-умумтаълим мактабида “Суд ва ёшлар” учрашуви ташкил қилинди. Унда ҳудуддаги таълим муассасаларининг 150 нафар ўқувчиси иштирок этди.

Ёшлар билан Жиноят ишлари бўйича вилоят суди судьяси Шуҳрат Худоёров, Жиззах вилояти иқтисодий суди судьяси Раҳматулло Бердиёров, Фуқаролик ишлари бўйича вилоят суди судьяси Собир Набиев мулоқотда бўлди.

Йигит-қизларга турли ихтисосликдаги судларнинг мақсад-вазифалари, судда жиноят ишини кўриб чиқиш тартиби батафсил тушунтирилди. Бугунги кунда ёшлар орасида иқтисодий жиноятлар, хусусан, тадбиркорлик фаолиятини йўлга қўйиб, солиқлардан қочиш ва ноқонуний даромад олишга интилиш ҳолатлари кўпайгани таъкидланди. Ўтган вақт мобайнида Жиззах вилоятида жиноят содир этиб, қилмишидан чин кўнгилдан пушаймон бўлган 51 нафар йигит-қизга Ёшлар иттифоқи кафиллиги асосида озодликдан маҳрум этиш билан боғлиқ бўлмаган жазо турлари тайинлагани ҳам айтиб ўтилди.

Шундан сўнг ёшлар ўзларини қизиқтирган саволлар билан мутахассисларга мурожаат этди. Учрашув сайёр суд мажлиси билан якунланди.

Элдор НАВРЎЗОВ.
Муаллиф олган сурат.

ACHCHIQTOSH

МАЪНАВИЯТМИ, ТЎХТАБ ТУРСИН!

Жамиятнинг таянч устуни — оила. Оилада тарбия топамиз, шахс сифатида шаклланамиз. Бир илмий манбада дунёда оиланинг учта модели борлиги ҳақида ёзилибди. Булар: анъанавий, замонавий ва инновацион оилалар. Биринчи иккитаси аввалроқ пайдо бўлгани боис, нисбатан кенг тарқалган. Инновацион оилалар эса, ҳозирча янгилик. Шу жумладан, Ўзбекистон учун ҳам.



ОИЛАДА ИҚТИСОДИЙ МАНФААТЛАРНИНГ БИРЛАМЧИ ЎРИНГА ЧИҚИШИ МАЪНАВИЙ ҚАДРИЯТЛАР ТИЗИМИГА ТЎҒРИДАН-ТЎҒРИ ТАЪСИР КЎРСАТМОҚДА

ДУНЁДА ОИЛАНИНГ УЧТА МОДЕЛИ БОР

Аммо қизиқ жиҳати бошқа. Учала оила модели ўз ичига учта омилни қамраб олади: маънавий-маърифий тарбия, оиладаги ижтимоий-иқтисодий ҳолат ва психологик муҳит.

ОИЛАВИЙ ҚАДРИЯТЛАРНИНГ БИРИН-КЕТИН ЗАВОЛ ТОПАЁТГАНИ ҚИСМАН УРБАНИЗАЦИЯ ЖАРАЁНИ БИЛАН БОҒЛИҚ



Фақат ҳар қайси моделда бу таркибий қисмлар оила аъзолари учун аҳамиятлилик даражаси ва характерига қараб турли кетма-кетликда жойлашган. Айтайлик,

АНЪАНАВИЙ ОИЛА УЧУН МАЪНАВИЙ-МАЪРИФИЙ ТАРБИЯ БИРИНЧИ, ИЖТИМОИЙ-ИҚТИСОДИЙ ОМИЛ ОХИРГИ ЎРИНДА ТУРАДИ.

Яъни, отанинг оила устуни сифатида қабул қилиниши, фарзандлар ота-онаси йўриғидан чиқмаслиги, каттага ҳурмат каби азалий қадриятлар завол топмаслиги оила аъзоларининг топармон-тутармон бўлиши ҳамда сифатли таълим олишидан кўра устунроқ.

Асосан шаҳарларда учрайдиган

ЗАМОНАВИЙ ОИЛАЛАРДА ЭСА, УНДАЙ ЭМАС. УЛАР УЧУН ИҚТИСОДИЙ БАРҚАРОРЛИККА ЭРИШИШ ҲАММА НАРСАДАН МУҲИМ САНАЛАДИ. ШУ САБАБЛИ ЭРКАКЛАР ҚАТОРИДА АЁЛЛАР ҲАМ ИШЛАЙДИ, БОЛАЛАР ҚАЕРДА ВА ҚАНДАЙ ТАЪЛИМ ОЛИШИ ОТА-ОНАСИНИНГ ЧЎНТАГИГА ҚАРАБ БЕЛГИЛАНАДИ.

ЎТГАН ЙИЛИ “ЎЗБЕКИСТОНДА АНЪАНАВИЙ ОИЛА МОДЕЛИ ТРАНСФОРМАЦИЯСИ” МАВЗУИДА ЎТКАЗИЛГАН СОЦИОЛОГИК СЎРОВ НАТИЖАЛАРИ ЗАМОНАВИЙ ОИЛАЛАРДА МАЪНАВИЙ-МАЪРИФИЙ ТАРБИЯ ОХИРГИ ЎРИНГА ТУШИБ ҚОЛГАНИНИ КЎРСАТДИ.

Таҳлилчилар халқимиз бағрида асрлар давомида шаклланиб, сайқал топган оилавий қадриятларнинг бирин-кетин завол топишини қисман урбанизация жараёни билан боғламоқда. Сўнгги йилларда одамзоднинг мегаполисларга интилиши бирмунча жадаллашди. Масалан, ҳозир юртимиз аҳолисининг 50,6 фоизи шаҳарларда истиқомат қилмоқда. Ўн-ўн беш йил олдинги ҳолатга қараганда бу кўрсаткич ўсган.

Шаҳар муҳитида анъанавий оилалардаги анъаналар қандай қилиб емирилиб бораётганини бир қанча мисолларда яққол кўриш мумкин. Оддийсидан бошласак.

ШАҲАРДА РАҚОБАТ КУЧЛИ. ЯХШИНИНГ ЎРНИНИ ЗЎР, ЭПЧИЛНИНГ ЎРНИНИ УНДАН ҲАМ УДДАБУРОНИ БОСАВЕРАДИ. ДЕМАККИ, ТУЗУКРОҚ ИШГА ЖОЙЛАШИБ, ТЎРТ СЎМ ТОПИШИНГ, БИРИНГНИ ИККИ ҚИЛИШИНГ УЧУН ЖОН-ЖАҲДИНГ БИЛАН КУРАШМОҒИНГ КЕРАК. БУНДАЙ ШАРОИТДА ОДАМЛАРДА ИНДИВИДУАЛИЗМ ҲИССИ КУЧАЙИБ, БАЪЗАН ЭГОЦЕНТРИЗМ ДАРАЖАСИГА ЕТМОҚДА.

ЎЗНИ ЎЙЛАШ, ШАХСИЙ МАНФААТНИ УМУМЖАМОАНИКИДАН УСТУН ҚЎЙИШ, ҒИРРОМЛИК ВА КОРРУПЦИЯГА ЎХШАШ ИНДИВИДУАЛИЗМДАН ЎСИБ ЧИҚУВЧИ ИЛЛАТЛАР ФАҚАТ БИР АВЛОДНИ ЗАҲАРЛАЁТГАНИ ЙЎҚ. УЛАР ТАРБИЯ АСНОСИДА КЕЙИНГИ АВЛОДЛАРГА ҲАМ “ЮҚТИРИЛМОҚДА”.

Иккинчи жиҳат оилаларнинг таркибий тузилиши билан боғлиқ. Шаҳарда кўпгина ёшлар турмуш қургач, рўзғорини ажратиб, ота-онасидан алоҳида яшашга интиляпти.

КЕКСАЛАРНИ БАҒРИГА СИҒДИРОЛМАГАН ОИЛАЛАРДА КАТТАНИНГ ҚАДРИ, КЕНГАШИБ ИШ ТУТМОҚ ОДАТИ ЙЎҚОЛАДИ. ТАБИИЙКИ, МУАММОЛИ ЁКИ МОЖАРОЛИ ВАЗИЯТЛАРНИ БАРТАРАФ ЭТИШ ҲАМ ЭР-ХОТИННИНГ ЎЗИГА ҚОЛИБ КЕТАДИ. ҲАЁТИЙ ТАЖРИБАСИ ОЗ, БУНИНГ УСТИГА, ҚИЗИҚҚОН ВА ЖИЗЗАКИ ЁШЛАР ШУ ФЕЪЛ-АТВОРИ БИЛАН ХАТО ҚИЛИБ ҚЎЙМАЙДИ ДЕЙСИЗМИ. ҚИЛГАНДА ҚАНДОҚ! УЛАР ОТА-ОНАСИ, БОБОЮ БУВИЛАРИДАН УЗИЛМАЙ ҚОЛГАНИДА ЭДИ, АРЗИМАС ГАП-СЎЗЛАРНИ ДЕБ АЖРАШИБ КЕТИШГА, ФАРЗАНДЛАРИНИ ТИРИК ЕТИМ ҚИЛИШГА БОТИНОЛМАСДИ, БАЛКИ...

Фарзандлар тадбиркорлик кўникмаларини ўзлаштириши ҳамда мустақил бўлиши учун шароит яратилади. Шунингдек, замонавий оила соғлом турмуш тарзига интилиб, касалликлар профилактикасига устувор аҳамият қаратади.

Мана энди, гапнинг индаллосига етиб келдик. Оилада иқтисодий манфаатларнинг бирламчи ўринга чиқиши маънавий қадриятлар тизимига тўғридан-тўғри таъсир кўрсатмоқда. Буни инкор этиш бефойда. Зотан, айни ҳақиқат демограф, психолог ва социолог олимларимиз иштирокида олиб борилган сўнгги тадқиқотлар жараёнида ҳам ўз тасдиғини топди. Хусусан,

Охиргиси кўпроқ ёшлар орасида намоён бўлаётгани ҳам ҳақиқат. Шу сабабли бугун бировнинг ҳақидан ҳазар қилиш, жўмардлик, ҳалоллик ва меҳнатсеварлик каби олий сифатларни буткул унутиб юборган оилалар кўпайса кўпайяптики, асло камаяётгани йўқ. Аянчлиси,

Илло, ҳамма севиб томоша қиладиган “Суюнчи” фильми бош қаҳрамони, маҳалласининг ор-номусига айланган ва чексиз ҳурматини қозонган Анзират бувига ўхшаган образлар аслида халқ ичидан олинганини жуда яхши биламиз.

800 та оила вакиллари ўртасида ўтказилган ижтимоий сўров жараёнида респондентларнинг фақат 23 фоизи маънавий-маърифий тарбияни оила мустаҳкамлигини таъминловчи муҳим омил сифатида қабул қилишини айтган. Демак, бу ота-оналар, аввало, ўзлари фарзандига ибрат, намуна кўрсатиши, уларни ҳалол меҳнат, тартиб-интизом, масъулият ва муомала маданиятига ўргатиши, шунингдек, Ватанга муҳаббат ва садоқат ҳиссини сингдириши кераклигини чуқур англайди. Тўғри, 800 та оила кўп миллионли халқимиз олдида дарёдан томчидек гап ва 23 фоиз ҳам бир қарашда, унчалик ёмон кўрсаткич эмас. Шундай эсада, тадқиқот натижалари кишида барибир хавотир уйғотади. Ахир, ҳозирги замонда маънавий қадриятлар ўз жойини нафс, ҳирс, ҳою-ҳавасга бўшатиб бераётгани ва кўп жиҳатдан айнан шу ҳолат ёшларимиз орзу-интилишларига тамал тоши қўяётганини кўриб-билиб турибмиз-ку!

УЙИНИ КИТОБ ЭМАС, ЛАТТА-ПУТТА ВА ЯНА БИР ДУНЁ КЕРАКСИЗ БУЮМЛАР БИЛАН ТЎЛДИРГАН, ФУРСАТ ТОПИЛДИ ДЕГУНЧА ТЕЛЕВИЗОР ЁКИ ИНТЕРНЕТДАН МИШ-МИШ ИЗЛАБ ЎТИРАДИГАН, ТУРЛИ ДАВРАЛАРДА ТУРКИЯДАН ҚАНДАЙ МОЛ ОЛИБ КЕЛГАНИЮ УНИ ҚАНЧАГА ПУЛЛАГАНИНИ АЙТИБ, МАҚТАНАДИГАН, КЕЙИН ЭСА, ТОПГАН-ТУТГАНИНИ ДАБДАБАЛИ ТЎЙ УЧУН СОВУРАДИГАН, БОЛАСИНИ ҲАМ ШОҲОНА ҲАЁТГА ҲАВАСМАНД ЭТИБ ТАРБИЯЛАГАН, ВАҚТИ КЕЛСА “МАЪНАВИЯТИНГ БИЛАН БОШИМНИ ҚОТИРМА!” ДЕГУВЧИ ЎЗБЕКЛАРИМИЗ, АФСУСКИ, ОРАМИЗДА УЧРАБ ТУРИБДИ.

Улар ҳам шу азиз юртнинг нон-тузини еб улғайган одамлар. Лекин миллатни миллат қилиб турувчи бирдамлик, орият, садоқат каби олий фазилатларни негадир ўзлари учун бегона санайди. Буларни қаердан ҳам билсин, аҳир?! Тирикчилик ташвишига муккасидан кетган, шахсий ҳузур-ҳаловатидан бошқасини ўйламайдиган кишига Ватан ҳақида гапириб кўринг-чи, ёқадими?! Йўқ, дўстим, ундайларнинг қорни эмас, кўзи оч аслида!

ШАХСИЙ ҲУЗУР-ҲАЛОВАТИДАН БОШҚАСИНИ ЎЙЛАМАЙДИГАН КИШИГА ВАТАН ҲАҚИДА ГАПИРИБ КЎРИНГ-ЧИ, ЁҚАДИМИ?! Э ЙЎҚ, УНДАЙЛАРНИНГ ҚОРНИ ЭМАС, КЎЗИ ОЧ АСЛИДА!

Маънавияти қашшоқ, ички олами ғариб инсонгина гулдек умрини бойлик орттириш, шон-шуҳрат кетидан қувиш, мансабга интилишдек бир пулга қиммат, ўткинчи амалларга сарфлайди. Гап фақат оддий, одми одамлар ва уларнинг калтабин “орзулари” ҳақида бораётгани йўқ.

БАЪЗАН ЎЗИНИ ЗИЁЛИ, МАРТАБАЛИ, ҲАТТО БОШҚАЛАРДАН БИР ПОҒОНА УСТУН ДЕБ БИЛАДИГАН ИНСОНЛАРНИНГ ҲАМ ДАВЛАТУ САВЛАТИ ОРТИДА ҲУВИЛЛАГАН ҚАЛБ БОРЛИГИНИ АНГЛАЙСАН, КИШИ. УНДАЙЛАР ЭЛ КОРИГА ЯРАШГА, ВАТАНПАРВАР БЎЛИШГА, ЮРТ ТАРАҚҚИЁТИ ЙЎЛИДА ФИДОЙИЛИК КЎРСАТИШГА ҚОДИР ЭМАС!

Чунки бу ишлардан манфаат йўқ, деб ўйлайди. Афсуски, уларнинг зурриёдлари ҳам, ўзларидан қолишмаган ҳолда, “аввал иқтисод, маънавият эса, тўхтаб турсин!”, деган эътиқод асосида ҳаёт йўлини давом эттираётир...

Ҳаркалай, бир оиланинг кичиги мамлакат тақдирига мутлақо бефарқ, худбин ва боқиманда бўлиб ўсса, бундан, алал-оқибат, ота-онаси жабр кўради-да дейишингиз мумкин. Қисман ҳақсиз. Лекин тангнинг бошқа томони ҳам бор — фарзандларимиз қандай инсон бўлиб етишиши эртага жамиятнинг қандай бўлишини белгилаб беради. Боладикдан илму ҳунар эгаллаш эмас, балки мол-дунё орттириш, мансаб ва мартаба, ҳурмат-эътибор, ҳатто билимни-да пулга сотиб олишга ўргатилган ғирром инсон жамият учун фойдали шахсга айланиши, элим деб, юртим деб ёниб-куйиши амримаҳол. Бундай ёшлар билан узоққа бориб бўлмайди!

Юксак маънавиятли авлодни тарбиялаш масаласи Ўзбекистонда давлат сиёсати даражасига кўтарилганининг боиси ҳам шунда. Бироқ мазкур жараённи оила институти иштирокисиз тасаввур этиб бўлмайди. Билъакс, у айнан оиланинг ичида кечмоғи даркор. Бошқача айтганда, халқнинг маънавияти юксалмагунча келажак авлодлардан фидойиликни кутиш бефойда. Ўзгаришни ўзимиздан бошлайлик, дўстлар.

Наргиза УМАРОВА

TAHLIL VA TALQIN

ЕТАКЧИГА КЎП НАРСА КЕРАК ЭМАС

Ўзбекистон ёшлар иттифоқи тизимида февраль ойи “Корхона, ташкилот ва муассасалардаги бошланғич ташкилотлар фаолияти самарадорлигини ошириш ойлиги” деб эълон қилинди. Демак, ташкилотнинг қуйи тузилмаларига эътибор янада кучайтирилади. Шу ўринда мазкур масалага Жиззах вилоятининг Мирзачўл туманида қандай ёндашилгани хусусида икки оғиз сўз.

Ўтган йили “Обод қишлоқ” дастури доирасида туманда барпо этилган корхона ва муассасаларда Иттифоқнинг 20 дан зиёд бошланғич ташкилоти тузилиб, уларнинг умумий салмоғи 74 тага етди. Бошланғич ташкилот етакчилари ва координаторлари иштирокида мунтазам тарзда ўқув машғулотлари, семинарлар, “Мунозара”, “Заковат” турнирлари, спорт мусобақалари, ўзаро тажриба алмашиш кунлари ўтказиб келиняпти.

Ташаббускорлиги билан бошқаларга ўрнак бўлаётган етакчиларимиз кўп. Масалан, Мирзачўл тикувчилик мажмуасидаги ёшлар етакчиси Нигора Абдужаппорова ишга яқинда келганига қарамай, жамоада ўз ўрни ва мавқеига эга бўлиб улгурди. У мажмуада фаолият кўрсатаётган ёш ходимларнинг бўш вақтини мазмунли ташкил қилиш, вилоят ва республика миқёсидаги танлов ҳамда кўргазмаларда фаол иштирокини таъминлашга алоҳида эътибор қаратган.

“Мирзачўл текс” корхонасидаги Иттифоқнинг бошланғич ташкилоти етакчиси Юлдуз Назарова Жиззах политехника институтини тамомлаб, технолог сифатида ишга жойлашганди. Ёшлар етакчиси сифатида бу тенгдошимиз ҳамкасбларининг муаммоларига ечим топишга ҳаракат қилмоқда. Юлдузнинг ташаббуси билан тумандаги ихтисослашган касб-ҳунар коллежлари ўқувчиларига корхона фаолияти билан мунтазам танишиш ва шу ерда амалиёт ўташ имконияти яратилди.

Яна бир фаол етакчи — Дилдора Облоқулова туман тиббиёт бирлашмаси ходими. У аҳоли саломатлигини сақлашга қаратилган профилактик тадбирларда ёш ҳамширалар иштирокини кучайтиришда жонбозлик кўрсатиб келяпти.

Туман маданият бўлими бошланғич ташкилоти етакчиси Мафтуна Норбоеванинг ҳам ғайратига ҳавасингиз келади. У ёшларга Мирзачўлда истиқомат қилаётган қардош халқлар рақсларини ўргатиш орқали миллатлараро тотувлик ва дўстлик алоқаларини мустаҳкамлашга хизмат қилаётгани, айниқса, таҳсинга сазовор. Мафтуна шеър ҳам ёзади. Ижод намуналари “Мирзачўл овози” газетасида эълон қилинган.

Бугун давлатимиз раҳбарининг шахсан ўзи ёшлар сиёсатига устувор аҳамият қаратаётган айни чоғда йигит-қизларимизга таянч бўлишга ошиқаётган етакчиларни қўллаб-қувватлаш, фаолиятини самарали ташкил этиши учун етарли шароит яратиш раҳбар кадрлар зиммасидаги бурчдир. Афсуски, ҳамма раҳбарлар ҳам айни масалада хайрихоҳлик кўрсатаётгани йўқ.

Бу ҳақда келгуси мақоламизда батафсил тўхталишга ҳаракат қиламиз.

Хуршида ШЕРБЕКОВА,
Ёшлар иттифоқи Мирзачўл тумани кенгаши бош мутахассиси

MULOHAZA

“МЕНАМ МАКТАПКА БОРАМАН”

Айни туш вақти. Уйдан Тошкентга қайтяпман. Машинамиз ёқилғи қуйиш шохобчасида тўхтади. Атроф гавжум, чамаси беш-олти ёш атрофидаги болалар йўловчилардан пул сўраб, тиланчилик қиляпти. Зумда бир қизалоқ ёнимга келиб, “Опажон, озгина нонга пул беринг, илтимос”, — дея ялина бошлади.

Унга бошдан-оёқ разм соларканман, қизнинг юпун аҳволда эканидан кўнглим бузилди. Қўлига беш-тўрт сўм бериб, гапга солдим. Одина билан укаси кун бўйи тиланчилик қилар, топганини уйга олиб бориб, онасига берарkан. Қаерда яшашини сўрасам, жавоб бермади. Ҳеч кимга айтмаслигини ойиси тайинлаган экан.

Қизалоқ анчадан буён ҳеч ким билан суҳбатлашмаган, шекилли, бир дам тўхтамасдан гапирарди. Ўтган йили дадаси автоҳалокат туфайли вафот этибди. Онаси касаллик сабаб ишламас, уйда катта қизи билан майда-чуйда юмушлар билан андармон бўларкан.

“Биз пул топмасак, улар оч қолади, — дейди қизалоқ. — Сентябрда менам мактапка бораман, ёзишни, ўқишни ўрганаман. Чиройли формалар кияман, кўп дугоналарим бўлади, улар билан ўйнайман”. Унинг орзулари бисёр...

Машина овози қизғин суҳбатни бўлди. Машинага минарканман, Одинанинг сал наридаги амакидан пул сўраётганига кўзим тушди...

Йўл бўйи шу воқеа хаёлимдан кетмади. Одинанинг онаси ҳақида ўйлардим. Оёқлари оғриётган бўлса, қўллари соғдир. Ул-бул юмуш билан шуғулланиб ҳам оила тебратса бўлар. Ахир улар бола-ку, айни ўйнаб-куладиган пайти. Тенгдошлари кўчада қувлашмачоқ, яшинмачоқ ўйнаётган маҳал улар одамлар ортидан югуриб, пул топяпти. Барча ҳам уларга индамасдан пул бериб кетавермайди, баъзилар ҳақоратли гаплар айтиб, уриб-туртади. Табиийки, бундан уларнинг дийдаси қотади. Ким кафолат беради, эртага бундай болаларнинг жамиятга, ҳукуматга нафрат кўзи билан қарамаслигига. Тиланчилик жонига тегиб, ўғри, қаллоб, жиноятчи бўлиб кетмаслигига-чи?!

Ахир, давлат томонидан уларга ўн олти ёшга тўлгунига қадар нафақа пули тўланади, бундан ташқари, маҳаллаларда ҳам боқувчисини йўқотган оилаларга алоҳида аҳамият қаратилиб, моддий ёрдам берилади.

Тўғри, балки вазиятни тўлиқ билмай туриб, Одинанинг ойисидан ноўрин гина қилаётгандирман. Лекин нима бўлган тақдирда ҳам, ёш болалардан пул топиш мақсадида фойдаланиш тўғримиди?!

Дилфуза АШУРБОЙ қизи

MULOHAZA UCHUN MAVZU

TIMATINING KONSERTIGA TUSHGANMIDINGIZ?

"Mirak naqqosh eskigina juzdonini ochib, shogirdining maxsus qog'ozlarga solingan rasmlarini bir-bir taqdim eta boshladi. Navoiy birinchi varaqni qo'liga olib, suratdan ko'zlarini uzoq vaqt uzmadi. Mirak naqqoshning ta'rificha, "qo'li oltin" bolaning chizgani — jivir-jivir gullar, barglar, chiziqlar nozikligi, jonliligi betimsol nafosat bilan uning ko'zlarini, ruhini sehrlagan edi. Navoiy orom va hayajon bilan chuqur nafas oldi. Ikkinchi rasmni ko'rdi. Ayni shu ruh, lekin yana boyroq, yana nafisroq. Mana, ov tasviri. Ohular go'yo qog'ozdan sakrab, o'ynoqlab ketayotgandek tuyuldi. Unda har bir nuqta ko'z kabi jonli. Navoiy o'nga yaqin rasmni benihoya zavq bilan tomosha qildi.

Nihoyat, shoir ko'zlarida yongan quvonch bilan yosh rassomni tabrikladi.

— Bu ko'hna jahon, — dedi u shavq bilan, — sizningdek san'atkorni hanuz qo'rmagan edi. Qalamingizning husni har qanday ta'rifdan benihoya balanddir. Bu kamolotni yanada oliylashtirmoq yo'lida samimiy harakat qilingiz".

(Oybekning "Navoiy" romanidan).

Navoiyni hayratlantirgan bu yosh musavvir Kamoliddin Behzod edi. Adabiyot va san'at daholarining ilk uchrashuvi shunday boshlangan. Behzod — tasviriy san'atimizning o'q ildizi. Bu ildizdan besh asrki, dunyo san'ati oziqlanib kelmoqda.

Tasviriy san'at... Bu so'zni eshitgan zamondoshimning xayoliga 15 megapikselli kamerada olingan surat yoki sayilgohda qator terib qo'yilib, xaridor kutayotgan rasmlar kelsa, ne ajab!

Navoiy va Behzod yashagan davrda adabiyot, tasviriy san'at, kitobat san'ati bir-birini to'ldirib ravnaq topgan bo'lsa, bugun biz elektron kitoblar rivoji sababmi, buni ancha unutdik. Davlatimiz tomonidan ijodkorlar uchun shart-sharoit to'kis bo'lgan vaqtda, xalqimiz, mas'ul tashkilotlar o'z rassomlari faoliyatiga qay darajada e'tiborli? Umuman, biz oxirgi bor qachon ko'rgazmaga bordik?

Ha, turmush bizning jilovimizni o'z qo'liga olgan. Uni sal bo'shatganda esa, yosh yetmishga borgan, ko'z ranglar jilosini his qilishdan biroz uzoqlashgan bo'lmaydimi?

Yosh san'atshunosman. Anglaymanki, bir rassom ko'rgazma taqdim etishi uchun yillab mehnat qiladi. Umrining oltin daqiqalarini ranglarga qorishtirib tasvir yaratadi. Axir uning-da bu xalqqa aytimlari bor. U ham o'zini shu xalqdan qarzi bor farzand deb biladi, buni sof tasvirlari ila uzgisi, ifodalari ila anglatgisi keladi.

Noyabr oyida ajoyib ko'rgazma bo'lib o'tdi. Yetti-sakkiz kun taqdim etilgan ko'rgazmaning dastlabki uch-to'rt kunidagina muxlislar faol bo'ldi. Ko'rgazma esa, haqiqiy o'zbek rassomining milliy ruhdagi beqiyos suratlari, jahon miqyosidagi dilbar tasvirlari bilan to'lgan bir ma'naviy xazina edi. Bu munosabatdan keyin rassom qay ishtiyoq bilan mehnat qilsin?! Vaholanki, bu holat ko'pgina ko'rgazmalarda kuzatiladi.

To'g'ri, yurtimizda bir qancha san'at galereyalari, muzeylar faoliyati yo'lga qo'yilgan. O'zbekiston Badiiy akademiyasi ijodkorlarni qo'llab-quvvatlab kelmoqda. Ammo ijod ahli borki, quruq shuhrat orttirishni emas, xalq mehrini istaydi. Xo'sh, yo'lga qo'yilgan muzey va galereyalarning haqiqiy ahvoli qanday?

Albatta, bizning qarashlarimiz bir yoqlama bo'lishi, masalaning asl mohiyatini ochib berishga ojizlik qilishi mumkin. Ammo davlatimiz rahbari yurtimiz ijodkor ziyolilari bilan bo'lgan uchrashuvda ta'kidlaganidek: "... Deylik, 15-20 yildan keyin O'zbekistonning madaniy rivojlanishi qanday kechadi, bugun biz yashayotgan Internet va yuksak texnologiyalar asrida adabiyot va san'at, madaniyatimizning o'rni va ta'sirini nafaqat saqlab qolish, balki qanday qilib uni kuchaytirish mumkin, degan to'g'ri va odilona savollar barchamizni, birinchi navbatda, xalqimizning eng ilg'or vakillari bo'lgan ijod ahlini o'ylantirishi zarur emasmi? "

Shunday ekan, taqdim etilayotgan ko'rgazmalarning ommaviy axborot vositalari e'tiboridan chetda qolayotgani, ma'lum darajada sayoz yoritilishi san'atimizni sanoatga aylantirayotgan tashkilotlarning xatosi emasmikan…

... Taksidaman. Haydovchi va uning yonidagi yo'lovchi suhbati diqqatimni tortdi. Timati konsertining banneriga ishora qilib, haydovchi shunday dedi:

— Bilet narxi qancha bo'libdi?

— Ikki yuz ming. Men ikkita oldim.

— Ha, yuz ming bo'lganda men ham olardim, — dedi haydovchi.

Men esa, mashina oynasidan ko'chaga termilib, musavvir tabiatning osmon ufqiga chizgan suratlarini tomosha qilib ketib boraman...

Madinabonu SHARIPOVA

1 SAVOLGA 1 JAVOB

— Maktabimiz direktori qarshi ekanimga qaramay, "Dars soatlaringiz ko'p", deya bir qismini boshqa o'qituvchiga berib yubordi. Bilmoqchiman, bunga haqqi bormi? Qonunchilik bo'yicha, qancha soat ishlashim mumkin? Qaysi masalani ko'tarib chiqmay, maktab ma'muriyati meni eshitgisi kelmaydi. Sudga murojaat qilay desam, boj to'lashga imkonim yo'q. Maslahat bering, iltimos.

Anonim savol

Savolga huquqshunos Javohir SHAMSUTDINOV javob beradi:

— O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 115-moddasiga muvofiq, xodim uchun ish vaqtining normal muddati haftasiga 40 soatdan oshirilishi mumkin emas.

Bundan tashqari, 89-moddada belgilanishicha, ish beruvchi faqat texnologiyadagi, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishdagi o'zgarishlar, ish (mahsulot, xizmat)lar hajmining qisqargani, basharti, bu holat xodimlar soni yoki ishlar xususiyatining o'zgarishiga olib kelishi oldindan aniq bo'lgan taqdirdagina xodim roziligisiz mehnat shartlarini o'zgartirishga haqli sanaladi.

Boshqa hollarda ish vaqtining muddati faqat xodim roziligi bilan qisqartirilishi mumkin. Shunda ham ish beruvchi xodimni kamida ikki oy oldin yozma ravishda ogohlantirib, tilxat olishi shart.

Mehnat munosabatlari bilan bog'liq nizolar xodimning ish joyida tuzilgan mehnat nizolari komissiyasi tomonidan yoki sudda hal etiladi. Lekin sudga da'vo arizasini huquqingiz buzilganini bilgan yoki bilishingiz lozim bo'lgan kundan boshlab uch oy muddatda taqdim etishingiz kerak.

Mehnat kodeksining 277-moddasiga ko'ra, xodimlar mehnatga doir huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan talablar bo'yicha sudga murojaat qilganida sud xarajatlarini to'lashdan ozod etiladi.

DILDAGI GAPLAR

TIL JOZIBASI

El ichra o'tirmoq yuqoriroqdin,
El ichra o'tirmoq yuqoriroq bil.

Hazrat Navoiy qalamiga mansub ushbu baytga e'tibor qarating — birgina harf o'zgarishi bilan mutlaqo yangi ma'no paydo bo'lyapti. Mana bu tilning chinakam jozibasi! So'zni his qila oladigan inson uchun esa mo'jizaning o'zginasi. Har qanday tilning go'zalligi shoir, yozuvchi, tarjimon, shuningdek, so'z ustalari ijodida ko'proq namoyon bo'ladi. Chunki ular tilning imkoniyatlaridan ko'proq foydalanadi. Yana Navoiy bobomiz xazinasiga nazar tashlaymiz:

Yo rab, ul shahdu shakar yolabdurur,
Yo magar shahdu shakar yolabdurur.
Jonima payvasta novak otqali,
G'amza o'qin qoshig'a yolabdurur.

(Yalamoq, yo labdir, yo'llamoq).

Ushbu tuyuq ko'pchilikka ma'lum va mashhur. Tajnis (shakldosh so'zlarni qo'llash) san'atining betakror namunasi hisoblanadi. Buni qarangki, tuyuq faqat o'zbek adabiyoti bo'stonini bezaydigan janr. Boshqa tillarda bunday imkoniyat yo'q.

Tilimizning jozibasini tarjimonlardan so'rang. Shunday tarjima asarlar borki, aslidan ko'ra ona tilimizda yanada chiroy ochadi. Pushkin, Sergey Yesenin she'rlarining tarjimalari xuddi o'zbek tilida yozilgandek. Pushkinning quyidagi romantik satrlari o'zbek tilida ham o'z jozibasini yo'qotmagan: "Ya zdes Inezilya, Ya zdes podoknom..." – "Inezilya, men shu yerdaman...". Inezilya ismli go'zal qizning derazasi ostida aytilgan she'r o'zbek tilida go'zal qo'shiq bo'lib yangragani tilimizning bag'rikengligini anglatadi. Yesenin she'rlari ham Erkin Vohidov, Sirojiddin Sayyid tarjimalarida allaqachon o'zbekniki bo'lib ketgan.

So'z ustalari ham til imkoniyatlaridan unumli foydalanib, kishini hayratga soladi. Ayniqsa, payrovlarda bu yaqqol namoyon bo'ladi. Mana bir misolni qarang:

"Afandidan so'rashdi:

— Xotiningizni nima deb chaqirasiz?

— Mahluqo!

— Voy qanday ajoyib! Jahlingiz chiqib turganda-chi?

— Mahluq..."

Ozgina hazil, ozgina yumor, ozgina kesatiq, ammo KATTA haqiqat yashiringan bu payrovda. Haqiqat shuki, tilimiz tasavvurimiz yetmaydigan darajada boy va go'zal. Buni kimgadir isbotlash, pesh qilish yoki maqtashdan yiroqmiz. Tilimiz bunga muhtojmas. Shunchaki, uni yaxshi ko'rishimizni, faxrlanishimizni bildirmoqchi bo'ldik, xolos. Ona tilim, seni yaxshi ko'raman!

Kumush ABDUSALOMOVA

MUTOLAADAN SO'NG

Meni maftun etgan "Yulduzli tunlar"

Inson ongu shuurini ravshan etuvchi kitob mening eng yaqin do'stim. U bilan tafakkuringiz yangi olamlarni kashf etadi. Ehtimol, shu sabab kitobga oshno bo'lishingiz shu qadar maroqli va totlidir. Mutolaa zavqi sizni aslo zeriktirmaydi, aksincha, hayotingizni go'zal ma'no va hikmatlarga to'ldirib boradi.

Zabardast yozuvchimiz Pirimqul Qodirovning asarlarini sevib mutolaa qilmagan, qiziqarli syujetlaridan qalbi zavqqa to'lmagan kitobxon bo'lmasa kerak. Yaqinda adibning "Yulduzli tunlar" romanini o'qib tugatdim. Asardagi voqealar meni g'oyat ta'sirlantirdi. Zahiriddin Muhammad Bobur boshiga tushgan musibatlar, taxt uchun beayov kurashlar tufayli mamlakatda yuzaga kelgan parokandalik, ba'zi amaldorlar fisqu-fujuri-yu ichki nizolarga dosh bergan bobomizning metin irodasi o'quvchini hayratga soladi, ibrat olishga undaydi. Garchi bobomiz atrofida Xonzodabegim, Qosimbek, Tohir, Mavlono Fazliddindek sadoqatli insonlar bo'lsa-da, xoinlar hazrat Boburning yagona barqaror mamlakat tuzishdek oliy maqsadiga to'sqinlik qilishga urinadi.

Adolatli hukmdor, mahoratli sarkarda va shu bilan birga, iste'dodli shoir Zahiriddin Muhammad Bobur Vatanidan bosh olib chiqishga majbur bo'lib, Hindiston tomon otlanadi. Biroq o'zga yurtda qilgan xayrli ishlarini ona makonida amalga oshira olmagani qalbini umr bo'yi o'rtagani rost.

Bobur tabiatida olijanoblik, yumshoq fe'llik, nozikta'blik, vatanga muhabbat va sadoqat kabi insoniy fazilatlar mujassam. U o'z orzularini hind xalqi ko'magida ro'yobga chiqardi. Hind diyorida ulkan va mustahkam saltanat tuzdi. Shunga qaramay, Vatan sog'inchi sabab bobomiz bu yorug' olamni armon bilan tark etgan. Bu ayanchli qismat necha ming yillar o'tib kitobxon ko'z o'ngida gavdalanar ekan, Boburning mislsiz shijoat va bardoshiga tahsin aytmay ilojingiz yo'q.

"Yulduzli tunlar"ni o'qib, avvalo, mana shunday dovyurak, matonatli insonlar avlodi ekanimdan faxrlandim. Bobur qalbidagi ona yurtga bo'lgan otashin muhabbat va o'tli sog'inch hissini dildan tuyib, kindik qonim to'kilgan aziz diyor — O'zbekistonim men uchun qanchalik qadrli va mo'tabar ekanini angladim.

Aziz tengdoshim, biz ulug' ma'rifatparvar zotlar vorisi ekanmiz, ularga munosib bo'lishga intilaylik!

Sevara SAYFIYEVA,
Parkent tumanidagi
4-umumta'lim maktabi
o'quvchisi

SABOQ

Solihjon tongda podani yaylovga haydab ketayotib, qirdagi eski maktab o'rnida qad rostlagan yangi binoga ko'zi tushdi. Qisqa muddatda qurilgan maktab yonidagi kichkina xona ham yangi qiyofa kasb etgan. Solihjon uni ko'rdi-yu beixtiyor onasining qadoq qo'llari yuzini silaganday bo'ldi. Uning onasi yillar davomida eski maktab hovlisini, sinf xonalari-yu zallarini pokiza saqlab kelgan farrosh ayol — Adiba aya.

QADR

Aya har kuni nevaralariga bir xil savol beradi:

— Maktabda shanbalik qilyapsizlarmi?

— Ha, buvijon.

— Uni pokiza saqlanglar. Faqat xizmatchi opalarga tashlab qo'ymang. Avval bolalar mening yaqin yordamchilarim edi.

— Biz esa, sizning nabirangizmiz, buvijon. So'zingizga hamisha amal qilamiz.

Kunlarning birida Adiba ayaning birinchi sinfda o'qiydigan nabirasi Aziza maktabdan yugurib keldi-yu, oyoq kiyimini shosha-pisha yechib, hansiragancha:

— Buvijon, siz supurgilar bilan gaplasharmidingiz? — deb so'radi.

Adiba aya avvaliga hayron qolib, uning ko'zlariga, manglayidagi dona-dona terlariga va savoliga sabrsizlik bilan javob kutayogan nigohiga qarab:

— Ha! – dedi.

— Voy, supurgida jon yo'q-ku!

— Bor, bolam, bor. Senga buni kim aytdi?

— Bugun hasharda opalarimdan eshitib qoldim. Ular sizni supurgi bilan shunday tillashardiki, biz to'rttasini to'zdirsak ham Adiba ayaning supurgisi yangiday turardi, — deydi.

— Eh, bolam-a, hali go'daksan. Sizlar tug'iliboq davru davron ko'rdingiz. Bu kunlar menga orzu, supurgimga tush edi, xolos. Men orzularim ushalishini o'ylasam, u sen kabi bolajonlar qo'lida poklikka xizmat qilish uchun uyg'onishni xohlardi. Supurgida ham jon bor, bo'lmasa yerni toza qilarmidi? Qolaversa, jonli-jonsiz hamma narsani qadrlash kerak. Shunda insonning o'zi ham qadr topadi.

Adiba aya shunday dedi-yu xayolga toldi. So'ng nimadir yodiga tushgandek nabirasiga yuzlandi:

— Omborga borsang, o'sha supurgimni topasan. U seni tushida ko'rayapti. Borib uni uyg'ot. Lekin, avayla...

Aziza omborxona tomon ketar ekan, hayotning muhim sabog'ini olganini hali bilmasdi.

Dilshodaxon OLIMOVA

BILASIZMI?

Nemislar, odatda, uylarining tomini kichik burchak ostida qurib, chetiga to'siqlar o'rnatadi. Bunday arxitektura asosan qorli o'lkalarga xos. Sababi qiya tomlar qor bosimiga ko'proq bardosh beradi.

Biroq qiyalikdan qor va muzning tushib ketishi ham oson. Bunday holat insonlar hayotiga xavf solmasligi uchun tomlarning gardishiga pastqam to'siqlar o'rnatiladi. Qor yoki muz to'siqlarga urilib parchalanadi va yerga yengil tushadi.

Achchiqligi bilan dong taratgan Chili qalampiri birinchi bo'lib portugaliyalik savdogarlar tomonidan Amerika qit'asidan Hindistonga olib kirilgan. U tropik iqlimda juda yaxshi o'sgani bois, mahalliy xalq taomnomasidan tezda o'rin egallaydi.

Ko'p o'tmay achchiq qalampir Shimoliy Osiyo mamlakatlarida ham ommalashdi. G'arbda esa, Chili qalampiri juda kam yetishtiriladi (asosan, Italiya, Ispaniya va Portugaliyada). Shu bois Yevropa oshxonasida unga kam e'tibor berilgan.

Guruch yetishtirish ko'p xarajat talab qilmaydi. Negaligini bilasizmi? Chunki bu ekin suv ichida unib, rivojlanadi. Suvda esa, zararkunandalar sekin ko'payadi.

Qolaversa, sholidan yiliga bir necha marta hosil olish mumkin. Uni saqlash ham qiyin emas.

MUASSIS
O'ZBEKISTON YOSHLAR ITTIFOQI MARKAZIY KENGASHI

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2017-yil 2-avgustda № 0242 raqami bilan qayta ro'yxatdan o'tgan.

BOSH MUHARRIR
Faxriddin KARIMOV

TAHRIR HAY'ATI
Mansur Bekmurodov, Begmat Ochilov, Madamin Safarov, Azim Mirzajonov, Mehrinoz Abbosova, Ra'no Shodiyeva, Shodmonqul Salomov, Irina Kochergina – bosh muharrir o'rinbosari ("Молодежь Узбекистана"), Javlon Vafoyev – mas'ul kotib ("Yoshlar ovozi"), Yelena Kalinina – mas'ul kotib ("Молодежь Узбекистана")

Navbatchi
Sherzod MAHMUDOV

Dizayner
Xurshid ABDULLAYEV

Gazeta materiallari tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi.

Tahririyat manzili: 100083, Toshkent, Matbuotchilar ko'chasi, 32.
Telefonlar: (71) 150-22-74, (71) 233-95-97, (71) 233-79-69 (faks)

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida, A-2 formatda chop etildi.
Hajmi — 2 bosma taboq.
Korxona manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41.
Indekslar: 203, 3203
Bahosi kelishilgan narxda.
Buyurtma G-213
Adadi — 21400
Bosishga topshirish vaqti — 21.00
Topshirildi — 02.30
O'zA yakuni — 02.15
1 2 3 5 6